



# XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*


Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi" faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni ( 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



### **Yuridik shaxs:**

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatları yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Oilaviy korxona



Unitar korxona



Xususiy korxona




Aksiyadorlik jamiyat




Boshqa korxonalar

*mas'uliyati cheklangan jamiyat  
birlik*



*xususiy korxona  
birlik*




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-avgust oylarida, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-avgust oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2020-yil yanvar-avgust oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020-yilning yanvar-avgust oylarida 3 427 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 674 ta, oilaviy korxonalar – 1 036 ta, xususiy korxonalar – 599 ta, muassasalar – 35 ta va boshqalar – 83 tani tashkil etdi.

## Oilaviy korxonalar soni

*(1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 3 586 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 268 taga yoki 54,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 256 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 032 taga yoki 46,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 036 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga yoki 0,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 9 843 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 857 taga yoki 23,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 8 934 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 375 taga yoki 18,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 674 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 73 taga yoki 4,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

*(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

*(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>34</b>	<b>47</b>	<b>59</b>	<b>122</b>	<b>153</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2	2	1	15	22
Sanoat	23	30	39	56	60
Qurilish	3	4	3	15	22
Savdo	3	6	9	23	29
Tashish va saqlash	0	1	1	5	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	3	3	4	8
Axborot va aloqa	0	0	0	1	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	0	0	1	1	4
Boshqa turlar	0	1	2	2	6

## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

*(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>5 266</b>	<b>5 789</b>	<b>6 141</b>	<b>7 559</b>	<b>8 934</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	592	627	708	900	1 385
Sanoat	894	1 052	1 106	1 329	1 419
Qurilish	885	925	971	1 154	1 255
Savdo	1 607	1 771	1 888	2 377	2 760
Tashish va saqlash	379	414	459	520	567
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	167	191	180	221	239
Axborot va aloqa	77	90	79	93	103
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	63	79	95	129	162
Boshqa turlar	602	640	655	836	1 044

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni

*(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

*(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>782</b>	<b>1 085</b>	<b>2 224</b>	<b>3 256</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	99	109	318	432
Sanoat	219	300	592	877
Qurilish	14	18	26	32
Savdo	156	230	545	941
Tashish va saqlash	5	7	12	19
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	178	297	551	669
Axborot va aloqa	12	11	22	21
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7	11	20	39
Boshqa turlar	92	102	138	226


## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**  
(2020- yil 1-sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining asosiy qismi Urganch shahri (4 566 ta), Urganch tumani (2 254 ta), Xiva shahri (1 760 ta), Xonqa tumani (1 645 ta) va Qo‘shko‘pir tumani (1 439 ta) hissasiga to‘g‘ri keladi.


**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	<b>Jami</b>	<b>shundan:</b>	
		<b>qo'shma korxona</b>	<b>xorijiy korxona</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>153</b>	<b>96</b>	<b>57</b>
<b>Urganch sh.</b>	45	31	14
<b>Xiva sh.</b>	16	10	6
<b>tumanlar:</b>			
<b>Bog'ot</b>	8	7	1
<b>Gurlan</b>	5	4	1
<b>Qo'shko'pir</b>	6	4	2
<b>Urganch</b>	22	8	14
<b>Hazorasp</b>	2	1	1
<b>Tuproqqal'a</b>	6	2	4
<b>Xonqa</b>	7	4	3
<b>Xiva</b>	11	5	6
<b>Shovot</b>	10	8	2
<b>Yangiariq</b>	6	4	2
<b>Yangibozor</b>	9	8	1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Urganch shahrida 45 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 29,4 %), Urganch tumani 22 ta (14,4 %), Xiva shahri 16 tani (10,6 %), Xiva tumani 11 ta (7,8 %), Shovot tumani 10 ta (6,5 %), Yangibozor tumani 9 ta (5,8 %) hamda Bog'ot tumani 8 tani (5,2 %) tashkil etadi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

*(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*




2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Urganch shahri (22,8 %), Urganch tumani (10,8 %), Xiva shahri (8,7 %), Xiva tumani (8,2 %), Xonqa tumani (7,6 %), Qo'shko'pir tumani (6,8 %), Gurlan tumani (6,5 %), Yangiariq tumani (5,7 %), Bog'ot tumani (5,6 %), Hazorasp tumani (5,2 %), Shovot tumani (5,2 %), Yangibozor tumani (4,7 %) va Tuproqqal'a tumani (2,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni


*(2020- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)*

2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Urganch shahrida (15,2 %), Qo'shko'pir tumani (10,1 %), Urganch tumani (9,3 %), Gurlan tumani (8,4 %), Yangibozor tumani (8,3 %), Bog'ot tumani (7,6 %), Xiva shahri (7,6 %), Xonqa tumani (7,4 %), Xiva tumani (7,0 %), Yangiariq tumani (5,9 %), Shovot tumani (5,5 %), Hazorasp tumani (4,5 %) va Tuproqqal'a tumani (3,2 %) ulushiga tegishli.



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

*(2020- yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar kesimidagi soni


*(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*



2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Urganch shahrida (21,8 %), Urganch tumani (10,3 %), Xiva shahri (9,3 %), Xiva tumani (8,7 %), Hazorasp tumani (7,7 %), Yangiariq tumani (7,5 %), Gurlan tumani (6,7 %), Xonqa tumani (6,2 %), Qo'shko'pir tumani (5,9 %), Bog'ot tumani (5,5 %), Shovot tumani (4,3 %), Tuproqqa'l'a tumani (3,4 %) va Yangibozor tumani (2,7 %) hissasiga tegishli.

## Tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

*(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)*



2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqt-i-vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o’tish chora-tadbirlari to‘g’risida” gi 275-sон qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the official website of the State Statistics Committee of Uzbekistan (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi). The main menu includes links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MEROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The 'INTERAKTIV XIZMATLAR' section is currently selected. On the left, there's a sidebar titled 'RASMIY STATISTIKA' with various statistical reports like 'Elon qilish taqvimi', 'Metama'lumotlar', etc. The central part of the page displays a list of 'Statistik klassifikatsiyalar' (Statistical classifications) such as 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Usulby materiallar', 'Taqdim ettiladigan hisobtolar ro'yxati', and 'Korxona pasporti'. A search bar at the bottom allows users to enter 'Rasmdagil kodni kiriting' (Enter entity code) and click 'Qidiruv' (Search). To the right, there's a column titled 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' listing useful documents like 'Aholini ro'yxtaga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', etc.

Tashqi foydalanuvchilar bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsnинг (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel.:62 224-65-11**